yatga ega. Bu esa ikki madaniyatning til va tafakkuridagi o‘ziga xosliklarni yanada chuqurroq o‘rganish zaruratini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqot tilshunoslik, etnografiya va madaniyatshunoslik sohalarida amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, turli tillar o‘rtasidagi madaniy va lingvistik muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu mavzuni boshqa tillar misolida kengroq o‘rganish orqali milliy madaniyatlararo aloqa masalalarini yanada boyitish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Arsentyeva E.F. (2006). Phraseology and phraseography in a comparative aspect (on the material of Russian and English languages). Kazan, Kazan State University, p. 172.

(2). Christine Ammer. “The American Heritage dictionary of idioms” second edition, Houghton Mifflin Harcourt, Boston New York, Copyright © 2013 by The Christine Ammer 1992, Trust, p. 260.

(3). Damien Villers. (2021). Phraseology vs. Paremiology: Toward a Typology of Reconciliation, in Intercontinental Dialogue on Phraseology. 4, University of Bialystok, p. 5.

(4). Гильмутдинова А.Р., Самаркина Н.О. Фразеологическая картина мира (на материале ФЕ с компонентом, относящимся к ФСП «Музыка», в английском и турецком языках). Международный научно-исследовательский журнал, ч. 4, “Филологические науки”, 2016, № 4 (46).

(5). Mirzayeva Aysu. Baku State University, Z.Khalilov, 23, Baku, Azerbaijan. “Phytonymic Phraseology and Linguocultural Features of Paremiological Units” South Asian journal of social scienties and humanities. VoL 2, ISSUE 4, p. 83.

Egamberganova Mehriniso (Urganch davlat universiteti magistranti; e-mail: mehriniso.hamroyevna19@gmail.com),
Bahodirova Feruza (Urganch davlat universiteti “Fakultetlararo chet tillari” kafedrasi dotsenti, PhD)

SIYOSIY DISKURSNING IJTIMOIY-LINGVISTIK, MADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola siyosiy nutqning ijtimoiy, lingvistik, madaniy xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidentlarining nutqi misol qilib olingan va ijtimoiy, lingvistik, madaniy jihatdan tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *til, madaniyat, kommunikativ kompetensiya, siyosiy diskurs, lingvistik, ijtimoiy, madaniy xususiyatlar.*

СОЦИАЛЬНО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ, КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПОЛИТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА

Аннотация. *Данная статья посвящена анализу социальных, языковых, культурных особенностей политического дискурса. Речь президентов Узбекистана и Соединенных Штатов Америки была проиллюстрирована и проанализирована в социальном, лингвистическом, культурном аспектах.*

Ключевые слова: *язык, культура, коммуникативная компетентность, политический дискурс, лингвистические, социальные, культурные особенности;*

SOCIO-LINGUISTIC, CULTURAL FEATURES OF POLITICAL DISCOURSE

Annotation. *This article is devoted to the analysis of the social, linguistic, cultural features of political speech. The speech of the Presidents of Uzbekistan and the United States of America was illustrated and analyzed in social, linguistic, and cultural aspects.*

Keywords: *language, culture, communicative competence, political discourse, linguistic, social, cultural characteristics.*

Kirish. Voqelikni idrok etish va uni bilishning milliy-madaniy xususiyatlari muammosi tadqiqotchilarni uzoq vaqtlardan beri qiziqtirib kelmoqda va ushbu muammo haqida bildirilgan fikrlar ham turli-tuman, ba’zan esa tamoman bir-biriga ziddir.

Shunisi aniqki, inson o‘z mavqeyiga jamiyat sababli erishadi, uning inson sifatida shakllanishining o‘zi ham madaniyat bilan bog‘liqdir. Insonning aqliy salohiyati, hatto kundalik yumushlari “madaniyat” bilan uyg‘unlashgan va bevosita shu madaniyatning qonun-qoidalariga moslashgan hisoblanadi. Har qanday madaniyat esa yillar, asrlar mobaynida o‘zgarib boradi va turli davlat, millatlarning madaniyatlari ham o‘ziga xos tarzda ajralib turadi, faqatgina bu farq obyektda emas, shu obyektga qanday ko‘z bilan qarashda hisoblanadi. Hech bir inson o‘z-o‘zidan madaniyatli bo‘lib qolmaydi, jamiyat bilan birgalikda, insonlar bilan muloqotda, voqelikdagi obyektlar bilan muloqotda madaniyat shakllanadi. Inson va voqelik o‘rtasidagi vositachi esa til hisoblanadi. Til voqelikni aks ettiradi, madaniyat esa voqelikning bir qismi hisoblanadi [4;62-b.].

Turli jamiyatlarda odamlar nafaqat turli til va lahjalarda gaplashadilar, balki ulardan tubdan farqli tarzda foydalanadilar, ba'zi jamiyatlarda oddiy suhbatlar ham kelishmovchiliklar bilan kechadi, baland ovozlar, his-tuyg'ular aniq bo'ladi. Boshqalarda odamlar janjaldan ehtiyot bo'lishadi, yumshoq ohangda gapirishadi, ba'zi davlatlarda insonlarning gapini bo'lish oddiy holat bo'lsa, ba'zilarida bu axloqsizlik hisoblanadi. Madaniyatga xos nutqning bunday usullarini o'rganish diskursning madaniy xususiyatlari bilan bog'liqdir.

Madaniyat esa, o'z navbatida, har bir sohaga, jumladan, siyosatga ham o'z ta'sirini o'tkaza olish xususiyatiga ega. So'nggi yillarda siyosiy tilning asosini tashkil etuvchi sotsiolingvistik omillarni o'rganishga ko'proq ahamiyat berilmoqda. Bunda kuzatilgan xususiyatlar hamma uchun standart xususiyatlar hisoblanmaydi, balki aynan bir millat uchun xos bo'lganligi bilan e'tirof qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Robert de Beaugrande o'zining "Diskurs analizi hikoyasi" nomli asarida Xomskiyning tilshunoslik nazariyasiga tanqidan tilni tabiatdan ajratmay, balki tilni diskursning bir bo'lagi, "haqiqiy kommunikativ hodisa"ning eng muhim qismi deya e'tirof etadi. Uning fikricha, "Diskurs analizi"da til orqali so'zlovchining dunyo va jamiyat haqidagi fikrlari bayon etiladi.

Nutq va madaniyatni o'rganishda eng samarali usul "Muloqot etnografiyasi" deb nomlanadi. U Dell Hayms tomonidan asos solingan va 1970-yillarda Jon Gumperz va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. Haymsning fikricha, malakali notiq bo'lish uchun grammatik bilimlardan ko'proq narsa talab qilinadi. Bu turli joylarda turli xil narsalar haqida madaniy jihatdan mos usullarda gapira olishni anglatadi. Bu qobiliyatni u "kommunikativ kompetensiya" deb ataydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Siyosiy nutqning ijtimoiy-lingvistik, madaniy xususiyatlarini tahlil qilish uchun diskurs tahlil usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.Nutq namunalarini tahlil qilishda semantik va pragmatik yondashuvlardan foydalanildi. Siyosiy nutqlarni o'rganish uchun Haymsning turli millatlarda "nutq hodisalari"ni o'rganish uchun yaratilgan modeli asosida tahlil qilib chiqamiz. Bu nutqni o'z ichiga olgan biror madaniyat uchun xos bo'lgan faoliyat hisoblanadi. U kommunikativ hodisaning o'lchov doirasini yaratdi va uni "Speaking" deb nomladi.

S setting and scene (nutqning fizik va ijtimoiy muhiti, makon, vaqt va voqeaning konteksti);

P participants – qatnashuvchilar, nutq jarayonidagi barcha ishtirokchilar, ya'ni tinglovchilar, so'zlovchilar va kuzatuvchilar;

E Ends – maqsad va natijalar, nutq voqeasining maqsadi, gapiruvchining niyati va kutilayotgan natijalar;

A act sequence – harakatlar ketma-ketligi, nutqning tartibi, ya'ni qanday qilib gapirilishi, mazmun qanday shakllanishi;

K key – ohang va kayfiyat, nutqning hissiy ohangi va kayfiyatni belgilovchi xususiyatlar, masalan, jiddiy, afsuslanarli, yurakni titratadigan va hokazo;

I instrumentalities – nutq uslublari, qanday nutq turida fikrning ifoda ettirilgani;

N norms of interaction and interpretation – muloqot normalari, nima uchun bunday emas, bunday qilinishi kerakligi;

G genre – bu qanday nutq turi ekanligi (suhbat, rasmiy uchrashuv,ma'ruza) [2;231–259-b.].

Bu model til va madaniyatning bir-biriga bog'liq ekanligini o'rganishda, nutq voqealarini tizimli tarzda tahlil qilishda juda samarali hisoblanadi. Bu model turli ijtimoiy-madaniy kontekstlarda diskursning qanday o'rin tutishini anglashga yordam beradi.

Bunga misol qilib, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yildagi yillik parlamentga murojaatini misol qilib olish mumkin.

Setting and scene: 29-dekabr 2020-yil, Prezidentning parlamentda chiqishi.

Participants: deputatlar, xalq vakillari va xalqaro diplomatlar.

Ends: o'tgan yilning sarhisobini berish, kelgusi yilda tez yordam xizmati, sog'liqni saqlash tizimini tubdan islohot qilish rejalari (chunki pandemiya davri edi), ta'lim tizimini rivojlantirish

Act Sequence: kirish, asosiy fikrlar va xulosa shakli. Masalan, "Qadrli xalq noiblari!" "Aziz yurtdoshlar!", "Bugun kelgusi yil uchun reja va dasturlarni aniq belgilab olar ekanmiz…", "Yangi yilda barchangizga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga fayz-u baraka, farzandlar, nabiralarning kamolini ko'rish baxtini tilayman. Doimo sog'-omon bo'ling, katta rahmat sizlarga".

Key: jiddiy, ishonchli va patriotik ohang.

Instrumentalities: o'zbek tili, ba'zan xalqaro rasmiy formatda inglizcha iboralar.

Norms: o'zbek milliy madaniyatiga mos hurmatli va odobli nutq.

Genre: rasman ma'ruza janri.

Endi AQSH Prezidenti Donald Trampning AQSH Kongressining qo‘shma majlisida qilgan nutqini Dell Hayms ning SPEAKING modeli bo‘yicha tahlil qilib chiqamiz.

Setting and Scene: 2017-yil 28-fevral, AQSH Kongressining Palatasi zali.

Participants: Nutq Donald Tramp tomonidan o‘qildi, tinglovchilar esa Kongress a’zolari, diplomatlar va keng jamoatchilik edi.

Ends (maqsadlar); Prezidentning siyosiy kun tartibini bayon etish, soliq islohotlari, sog‘liqni saqlash tizimi, immigratsiya va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha rejalarni taqdim etish, birlashuv va milliy ruhni ko‘tarish

Act Sequence: “Thank you very much, Mr Speaker, Mr Vice President, Members of Congress, the First Lady of the Unites States – (applause) – and citizens of America” – “Sizlarga katta rahmat, hurmatli notiq, Janob Vitse Prezident, Kongress a’zolari, Qo‘shma Shtatlarning birinchi ayol xonimi (qarsaklar), Amerika fuqarolari”.

“Then, in 2016, the Earth shifted beneath our feet” – “So‘ng, 2016-yilda Yer bizning oyoqlarimiz ostida siljidi”.

“Then the quiet voices became a loud chorus” – “Keyin tinch ovozlar baland xorga aylandi”.

“Thank you, God bless you, and God bless the United States” – “Rahmat, Yaratgan sizlar va Amerika Qo‘shma Shtatlarini o‘z panohida asrasin”.

Key: Prezidentning nutqi ishonchli, qat’iy va patriotik ohangda kechdi.

Instrumentalities: rasmiy ingliz tili. Murakkab terminlar va oddiy xalq tushunadigan so‘zlar aralashdi. Metaforalardan foydalanildi.

Norms: Nutq davomida rasmiy nutq odob-axloq qoidalariga amal qilindi.

Genre: Bu davlat arbobining qonunchilik organi oldidagi rasmiy nutqi hisoblanadi, asosan, siyosiy diskurs janriga kiradi.

Tahlil va natijalar. Biz SPEAKING modeli orqali o‘zbek va ingliz millatining bir xil vaziyatda, ya’ni Prezidentlarning Parlament oldidagi chiqishlarini tahlil qildik. Bu nutqlardagi ijtimoiy-lingvistik, madaniy farqlarni umumlashtirsak, quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Ijtimoiy-lingvistik xususiyatlar. O‘zbek siyosiy nutqi rasmiy va hurmatli uslubda bo‘lib, xalqning milliy an’analari va qadriyatlariga mos ravishda ifodalangan, tinglovchilarga nisbatan muloyim, hurmat-izzat bilan yondashiladi. Ko‘pincha, o‘zbek tili, ba’zan xalqaro miqyosdagi so‘zlardan foydalaniladi. Nutq millatni birlashtirish va barqarorlikni ta’minlash maqsadida bo‘ladi.

Ingliz siyosiy nutqi, ko‘pincha, keng auditoriyaga murojaat qiladi va raqib partiyalar bilan muloqotga chaqiriladi. Nutq hissiyotlarga ta’sir qiluvchi kuchli metaforalar, iboralar bilan boyitiladi. Donald Tramp “Birinchi ayol xonimi” deb hazil aralash o‘z rafiqasini ham eslab o‘tganini misol qilish mumkin. Nutqlarda xalqaro siyosat, iqtisodiy raqobat va ijtimoiy tenglik muammolari tez-tez tilga olinadi.

2. Madaniy xususiyatlar. O‘zbek siyosiy nutqida O‘zbekistonning tarixi, madaniy merosi va milliy iftixori ko‘p tilga olinadi. Shaxsdan ko‘ra, jamoaga manfaatlariga ko‘p e’tibor beriladi, bu esa o‘zbek madaniyatining bir qismidir. Tanqidiy masalalar yumshoqroq va umumiyroq tarzda ifodalanadi, tinglovchida salbiy fikr uyg‘otmaslik va ko‘nglini og‘ritmaslikka harakat qilinadi.

Ingliz siyosiy nutqida shaxsiy yutuqlar va liderlik fazilatlariga urg‘u beriladi, oldingi qilingan siyosiy xatoliklar ochiq tan olinadi, nutqlarda demokratiya va inson huquqlari va tenglik kabi universal qadriyatlarga urg‘u beriladi.

Ikki millatning siyoaiy nutqidagi o‘xshashlik – bu har ikkala nutq ham milliy manfaatlarni ko‘zlaydi. Farqi esa o‘zbek siyosiy nutqi ko‘pincha an’anaviy va milliy qadriyatlarga asoslangan, ingliz siyosiy nutqi esa umumiy qadriyatlar va xalqaro muammolarga e’tibor qaratadi.

Siyosatchilar tomonidan ishlatiladigan siyosiy nutqning bir qancha lingvistik usullari mavjud va shulardan eng keng tarqalgani jamoatchilikni ishontirish maqsadida qo‘llaniladigan ritorika va majoziy tildan foydalanish hisoblanadi. Bunda siyosiy nutqda, ko‘pincha, metafora, o‘xshatish, giperbola kabi vositalardan foydalaniladi. Ushbu vositalar insonlarning ongiga yanada ko‘proq ta’sir o‘tkazish maqsadida qo‘llaniladi. Metaforaning qo‘llanilishiga misol qilib Barak Obama tomonidan qo‘llanilgan “The American Dream” – Amerika orzusi metaforasini olishimiz mumkin. Bu metaforani qo‘llash orqali shu yerga intilish ma’nosi yanada kuchliroq tarzda ifodalangan. Siyosiy diskursning yana bir muhim xususiyati shuki, unda emotsional tildan foydalaniladi. Kuchli sifatlar, ravishlar va ta’sirchan obrazlardan foydalaniladi. Siyosiy diskursning yana bir keng tarqalgan lingvistik xususiyati shundaki, unda olmoshlar va boshqa birliklarning ishlatilishidir. Siyosiy nutqda “qutblanish” tushunchasi mavjud bo‘lib, BIZ va BIZNING harakatlarimizga ijobiy nuqtayi nazardan, ULAR va ULARNING xatti-harakatlariga salbiy nuqtayi nazardan qaralish ehti-

moli ko‘p hisoblanadi [5;28-b.]. Bu degani siyosatda har qaysi taraf o‘zining xatti-harakatini ijobiy tarzda, ikkinchi tarafga esa, ko‘pincha, salbiy tarzda baho beradi. Barak Obamaning inauguratsiya nutqini tahlil qiladigan bo‘lsak, unda 1-shaxs ko‘plik olmoshidan samarali foydalanilgan, bu tinglovchilar bilan hamfikr ekanligini, bu masalaga hamma birdek mas’ul ekanligini insonlarning ongiga singdirishga yordam beradi. Bundan tashqari, siyosiy nutqda, ko‘pincha, majhul nisbatdan ham foydalaniladi, bu diqqatni notiqning o‘ziga emas, balki nutqning o‘ziga, nutqning maqsadiga e’tibor berishga undaydi. Siyosiy nutqning o‘ziga xos siyosiy terminlari va jargonlari ham mavjud, lekin uni hamma ham tushuna olmaydi. Bunday holatda siyosiy terminlarni bilmaydigan auditoriya uchun istisno qilish mumkin. V.Konolli o‘zining “Siyosiy diskursga oid atamalar” kitobida siyosiy diskursni tushunishni uchta ma’noda izohlab o‘tadi:

1. Bu kabi lug‘at, odatda, siyosiy fikr va harakatlarda qo‘llaniladi.
2. Lug‘atda ifodalangan ma’nolar umumlashadi va ma’lum bir tushuncha doirasini yaratadi.
3. Ushbu mezonlar amalga oshganda vazifalar va qarorlar an’anaviy tarzda ma’qullanadi [1].

Bundan tashqari, takrorlash siyosiy nutqda ko‘p uchraydigan lingvistik xususiyatdir. Muayyan tushuncha yoki da’vatlarni takrorlash orqali siyosatchilar o‘zlarining fikrlarining ta’sir doirasini kuchaytiradilar va insonlar xotirasida yanada ko‘proq esda qolishiga sharoit yaratdilar. Jumladan, Barak Obama ham o‘z g‘oyalarini mustahkamlash hamda hissiy ta’sirini oshirish maqsadida takrorlardan unumli foydalangan.

Xulosa. Siyosiy diskursning lingvistik xususiyatlari oddiy muloqot doirasidan farq qiladi. Ular siyosatchilar tomonidan ommani ishontirish, ularga ta’sir o‘tkazish va birlashtirish uchun ishlab chiqilgan strategiyalar hisoblanadi. Ushbu lingvistik xususiyatlarni tushunish siyosiy nutqni tanqidiy tahlil qilishga va gaplarning asl mazmunini tushunishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Conolly W. The Terms of Political Discourse. Princeton University Press, 1993.

(2). Goddard, Cliff and Anna Wierzbicka, 1997, Discourse and Culture. In Teun A.van Djik. (ed.), Discourse as Social Interaction.

(3). Linguistic Features of Political Discourse, Kuralay Kenzhekankyzy Kenzhekanova. Al-Farabi Kazakh National University.

(4). Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. “Sangzor” nashriyoti, 2006.

(5). Teun A. van Djik. What is Political Discourse Analysis? 28 p.

(6). https://president.uz

(7). https://trumpwhitehouse.archives.gov

Karimova Dilorom Shavkat qizi (Andijon davlat Pedagogika instituti “Amaliy xorijiy tillar” kafedrasi, f.f.f.d. (PhD); e-mail: karimovadilorom15@gmail.com)

OLAMNING LISONIY MANZARASIDA LINGVOMADANIYAT VA ANTROPOTSENTRIK BIRLIKLARNING MOHIYATI

Annotatsiya. *Ilmiy tadqiqotda konseptosfera til birliklari va ma’nolar majmuyi bilan ifodalanadi. Konseptosfera tildagi alohida so‘zlar orqali ham ifodalanishi mumkin. Bunda biror konseptga xos bo‘lgan tushuncha va ma’nolarning maydoni yoki ularning majmui konseptosferani tashkil qilgan. Konsept va konseptosfera terminlarining o‘xshash tomonlari ularning inson ongida paydo bo‘lib, biror-bir obrazni tasvirlashida ko‘rinadi. Binobarin, konseptosfera fikrlash in’ikosi sifatida hamda universal bir predmetga xos ramziy birliklarning majmuyi sifatida insonlarning axborot doirasini tashkil qilib, u til birliklari bo‘lgan so‘z, metafora, frazeologizmlar, sintaktik struktura kabilar orqali ifodalangan.*

Kalit so‘zlar: *konsept, konseptosfera, olamning lisoniy manzarasi, lingvopragmatik, lingvokognitiv, antroposentrik birliklar.*

Каримова Дилором Шавкатовна (Андижанский государственный педагогический институт, кафедра прикладных иностранных языков ф.ф.ф.д. (PhD); karimovadilorom15@gmail.com)

СУЩНОСТЬ ЛИНГВОКУЛЬТУРЫ И АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В ЯЗЫКОВОМ ЛАНДШАФТЕ МИРА

Аннотация. *В языковом ландшафте мира концептосфера представлена совокупностью языковых единиц и значений. Концептосферу можно выразить и через отдельные слова языка. В этом случае поле понятий и значений, свойственное понятию или их совокупности, образует концептосферу. Сходные аспекты терминов концепт и концептосфера проявляются в том, как они появляются в сознании человека и описывают образ. Поэтому как отражение понятийного мышления и как совокупность характерных для универсального объекта символических единиц она образует*